



DEVON ADABIYOTI" DAVOMCHISI MUQIMIYNING IJODIDA
IQTISODIY – IJTIMOIIY MUAMMOLAR DOLZARBLIGI

Meylixolov Mahmudbek O'lmasbekovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,

"Raqamli Iqtisodiyot " fakulteti,

Statistika, RST-76 guruh talabasi

mahmudmeylixolov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr o'zbek adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biri bo'lmish, o'z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida "devon adabiyoti" deb nomlanadigan Sharq adabiyotining davomchilaridan eng yorqini Muqimiyning iqtisodiy – ijtimoiy muammolarni yechimini topish uchun keng qo'llangani va bir necha yetakchi xususiyatlari, hayotining yoshlarga ibratli tomonlari tahlili sifatida ko'rsatib beriladi. She'rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo'ladi. Shoir vafotidan to'rt yil keyin uning devoni "Devoni muqimiy" nomi bilan ilk bor 1907-yilda Muqimiy Nikolay Ostroumov tomonidan nashr etilgan. Ushbu maqolada mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi iqtisodiy muammo va yechimlar o'rganilishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Muqimiy ijodi, asarlar to'plami, she'rlardagi o'xshatishlar, Qo'qondagi adabiy muhit, Muqimiyning yonmagan qo'lyozmalari.*

Muqimiy – o'zbek adabiyotining yuzaga kelishida katta o'rin tutgan buyuk shoirlardan biri bo'lib, uning ijodida jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar aks etgan. XVII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan shoir, o'z davrining og'riqli muammolarini, xalqning azob-uqubatlarini, uning ijtimoiy va iqtisodiy holatini ijodiy tarzda yoritgan. Shoirning asarlarida o'z zamonasining iqtisodiy va ijtimoiy muammolari asosiy mavzulardan biri sifatida ko'rinadi.

Muqimiy asarlarini o'qib chiqish, ayniqsa, XIX asr boshlaridagi iqtisodiy inqiroz, aholining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, uning tarixi va madaniyatiga oid ko'plab izlanishlarni olib borishga imkon yaratadi. Shoir xalqning kundalik hayotida uchraydigan qiyinchiliklar, ziddiyatlar, jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik kabi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga jiddiy e'tibor qaratgan. U o'zining ijodiy faoliyatida o'z davrining iqtisodiy-siyosiy holatini o'ziga xos tarzda aks ettirib, bu masalalarga atroflicha qarashni rag'batlantiradi.

Shoirning asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy inqiroz, savdo-sotiq, soliqlar va boshqa iqtisodiy masalalar haqida keng fikr yuritilgan. Shoir o'zining she'riy asarlarida xalqning og'ir kunlarini tasvirlab, uning adolatni, erkinlikni orzu qilayotganligini ifodalagan. Shu bilan birga, Muqimiy devonida jamiyatdagi ijtimoiy adolat va inson huquqlariga bo'lgan talabning dolzarbligi ko'rinadi.



Bunday yondashuvlar, ayniqsa, adabiyotshunoslik va tarixshunoslik sohalarida Muqimiy ijodini chuqurroq tahlil qilishga asos yaratadi. O'zbek adabiyotidagi Muqimiy asarlari – nafaqat o'z davrining ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini aks ettiruvchi yodgorlik, balki bugungi kunning dolzarb muammolariga javob berishga imkoniyat yaratadigan muhim adabiy manbadir.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy yoshligidan she'r va har xil turdagi qo'lyozmalar bitishga juda ham qiziqadigan inson bo'lgan. Yigitlik chog'ida savodini chiqarish uchun madrasaga ilm olgan. O'sha kezlarda Aminxo'janing madrasasi ammasining uyiga yaqin bo'lgan va u ammasinng qizi Mavsumani yoqtirib qolgan. Ammo pochchasi qarshiligi tufayli u o'z baxtiga erisha olmagan. Bunga sabab mol dunyo va o'sha paytlarda nohaq olingan soliqlar va tanob yerlar asosiy sabab bo'lgan. Negaki usha paytlarda iqtisodiy tizim ahvol juda jigal vaziyatda edi. Shu boisdan Muqimiy asarlarida bir qancha muhim iqtisodiy masalalar ko'tarilgan, jumladan: Kambag'allar va boylar o'rtasidagi keskin tafovut ya'ni tabaqalashtirish haqida. Muqimiy o'z davrida jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo'lgan ijtimoiy tengsizlikni ochiqdan-ochiq tanqid qilgan. "Boyvachcha" hajviyasi orqali u boylarning ochko'zligi va o'z qorinini to'ydirish uchun xalqni ezib ishlatishini hajviy yo'sinda tasvirlaydi. U o'z asarlarida kambag'allarning hayoti qanchalik og'ir va nohaqliklardan to'la ekanligini ko'rsatadi. Yoshligida otasi nonvoy bo'lib oila terbatgan, onasidan esa erta ayrilgani sabab singlisi bilan ugay ona qo'lida qolishadi. Ammasining qizi mavsumaga yeta olmagach, uni unashtirishadi va o'sha kezlarda ham she'r va asarlar yozishdan tuhtamaydi. Lekin bu bilan oila boqib bo'lmas edi, xotining injiqliklaridan so'ng dehqon bo'lib ham ishlaydi va uyerda ham zulm va tuhmatlar guvohi bo'ladi. Dehqonlar jamiyatning asosiy tayanchi bo'lishiga qaramay, og'ir hayot kechirishgan. Muqimiy bu haqda yozgan she'rlarida ularning mashaqqatli mehnatini va haqsizlikka duch kelayotganini ifoda etgan. "Dehqonlar" she'rida u kambag'al dehqonlarning o'z yeriga ega bo'lmasligi va boylarning qo'l ostida ishlashga majbur bo'lishini tasvirlaydi. Muqimiy davlat amaldorlarining poraxo'rliqi, ulardan boylarning foyda ko'rishi va kambag'allarning undan aziyat chekishini ko'p bora tilga olgan. "Qozilar haqida" hajviyasida sud tizimidagi poraxo'rlik va adolatsizlik masalalari qoralangan. U ko'zbo'yamachilik va amaldorlarning o'z manfaati uchun xalqni qanday aldashlarini fosh etgan.

Muhammad Aminxo'ja adolatli boshqaruv tarafdori bo'lgan va shu boisdan uni ko'p davlat amaldorlari yomon ko'rishgan. Jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka olib kelish uchun adolatli boshqaruvni joriy etish zarurligini ta'kidlagan. Boylar va amaldorlarning o'zini mas'uliyatli tutishi, kambag'allarga yordam berishi haqida yozgan.

Muqimiy Buxoroga borib zehnli muallimdan o'z savodini yanada oshirdi va usha paytlardan boshlab bilim olish va ma'rifatga bo'lgan izlanish ishlarini olib bordi. Muqimiy xalqning iqtisodiy savodxonligini oshirishni muhim deb bilgan. U kambag'allarni mehnat qilish bilan birga bilim olishga undagan. Uningcha, iqtisodiy muammolarning asosiy ildizi – jaholat va madaniyatsizlikdir. Muqimiy halol mehnat qilish va haqiqiy boylikni o'z mehnati bilan topishni targ'ib qilgan. Dangasalik va aldovga asoslangan iqtisodiy faoliyatni keskin





tanqid qilgan. U o'z davridagi boylarni kambag'allarga yordam berishga, ularga yer ajratishga va mehnat sharoitlarini yaxshilashga chorlagan.

Muqimiy o'zining she'r va hajviyalari orqali iqtisodiy muammolarni xalq ommasiga sodda va tushunarli tarzda yetkazgan.

- “Mol bozorida” she'rida bozorlardagi aldov va firibgarliklar tanqid qilinadi. Savdo-sotiqda adolatning yo'qligi haqida gapiradi.

- “Qozilar haqida” hajviyasi orqali Muqimiy adolatsiz qozilarning mol-mulkni nohaq tarzda boylar foydasiga hal qilishini fosh qiladi.

- “Hammomchilar haqida” hajviy she'ri aholining kambag'allikdan o'z sog'lig'i va gigienasiga e'tibor bera olmasligi haqida hikoya qiladi.

Muqimiyning asarlarida ko'tarilgan iqtisodiy muammolar va yechimlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ulardan:

- Ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash.
- Kambag'allarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy qilish.
- Korrupsiyaga qarshi kurash.
- Xalqni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan savodli qilish.

Muqimiyning hajviy janrda yozilgan asarlari ijtimoiy adolat va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda o'z davri uchun muhim fikrlar manbai bo'lgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Muqimiy ijodi orqali iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni o'tkir hajv va realistik tasvirlar yordamida fosh etgan. Uning asarlari xalq hayotining achchiq haqiqatlarini ochib berib, zulm va adolatsizlikka qarshi norozilik ruhini ifoda etgan. Bu esa Muqimiyning nafaqat iste'dodli shoir, balki o'z davrining haqiqatgo'y adibi sifatida qadrlashga asos beradi. Muqimiy yashagan davrda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va mahalliy hukmdorlarning zulmi sababli dehqonlar va hunarmandlar ortiqcha soliqlar, majburiy mehnat va iqtisodiy bosim ostida ezilgan. Masalan, uning “Saylov” hajviyasida amaldorlarning ochko'zligi va saylov tizimidagi adolatsizlik kulgili, ammo keskin shaklda ko'rsatilgan. Shoir “Boyvachcha” hajviyasida esa boylarning ilmsizligi, faqat mol-dunyo ortidan quvishi, xalq manfaatini unutishi muammosini fosh etadi. Shu bilan birga usha zamondagi iqtisodiy tafovutni va hozirgi iqtisodga bo'lgan ijobiy tavsiyalarni yozib qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://ilmlar.uz/muqumiy-sherlari-muqimiy-ijod-yoli/>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-hayoti-va-faoliyatining-o-rganilishi>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-hayoti-va-faoliyatining-o-rganilishi>
5. <https://bilimlar.uz/muqimiy-1850-1903/>